



ISLOM MANBALARIDA EHSON TUSHUNCHASI

Mirsobitova Habiba Shuxratjon qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Agzamova Muhabbat Mirtoxirovna

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

*“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini rivojlantirish ICESCO” kafedrası
mudiri, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Islom manbalaridagi markaziy tushunchalaridan biri bo'lgan “ehson”ning mohiyati, uning lug'aviy va istilohiy ma'nolari hamda jamiyat hayotidagi ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ehsonning faqat moddiy yordam emas, balki har bir ishni mukammal bajarish, ota-onaga yaxshilik qilish, ilm tarqatish, odob-axloq me'yorlariga amal qilish va tabiatni asrash kabi keng qirrali tushuncha ekanligi Qur'oni karim oyatlari hamda hadisi shariflar asosida yoritilgan. Shuningdek, maqolada ehsonning inson ruhiyatiga ta'siri va jamiyatda totuvlikni ta'minlashdagi roli ilmiy asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar: Ehson, Islom manbalari, Qur'on, hadis, ma'naviyat, ota-ona haqqi, ilmiy ehson, moddiy ehson, ijtimoiy totuvlik, tabiatni asrash.

Islom ta'limotida insonning komillikka intilishi nafaqat ibodat amallari, balki muomala, axloq va jamiyat oldidagi mas'uliyatda ham namoyon bo'ladi. “Ehson” tushunchasi islom manbalarida juda markaziy o'rin egallab, faqat moddiy yordam ko'rsatish yoki xayriya qilish bilangina cheklanmaydi, u atrofdagilarga adolat, mehr, kechirim va muruvvat bilan munosabatda bo'lishini ham anglatadi. Islomning asosiy manbalari bo'lgan Qur'oni karim va sunnatda ehson ko'p qirrali tushuncha sifatida yoritiladi. Qur'onda ehson odatda yaxshilik qilish, adolatli bo'lish, ota-onaga e'zoz, yaqinlar va muhtojlarga g'amxo'rlik, jamiyatda tinchlik va totuvlikni mustahkamlash kabi mazmunlar bilan birga keladi. Hadis manbalarida esa ehson “Amalni mukammal qilish” va “Allohni go'yo ko'rib turgandek ibodat qilish” darajasiga ko'tarilib, insonning ruhiy-axloqiy taraqqiyot bosqichlari sifatida bayon etiladi.

“Ehson” so'zi arabcha bo'lib, lug'aviy jihatdan “foyda yetkazish”, “yaxshilik qilish”, “biror ishni mukammal bajarish” ma'nolarini anglatadi¹⁶. Biror amalni eng yaxshi tarzda ado etish, boshqalarga yaxshilik va manfaat

¹⁶ Muhammadsiddiq Abdulmannon o'g'li Abdulloh Abdulmajid o'g'li. Ehson. – Toshkent: Matbaachi, 2024 – B.10.



yetkazish “ehson” tushunchasining lug‘aviy mazmunini ifodalaydi. Istilohda esa ehson, Allohga chin ixlos bilan bandalik qilish hamda odamlarga chiroyli muomala va yaxshilik bilan munosabatda bo‘lishlikni ifodalab, unning mohiyati ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, insonning boshqalarga nisbatan ezgulik ko‘rsatishini bildirsa, ikkinchi tomondan, shaxsning o‘zini tarbiyalashi va holatini isloh qilishiga xizmat qiladi. Islom ta’limotida ehson eng fazilatli amallardan sanaladi. Imkoniyatli insonning o‘z mol-mulkidan muhtojlarga yordam berishi, jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan ezgu ishlarni Allohning roziligini ko‘zlab amalga oshirishini ham o‘z ichiga oladi. Insonlarga ehson qilishning zarurligi, uning yuksak fazilati va Alloh huzuridagi mukofoti Qur’oni karim oyatlari hamda hadislar bilan asoslangan bo‘lib, manbalarda uning dunyoviy va oxiratdagi natijalari keng bayon etilgan.

Ehson nafaqat moddiy yordam, balki yaxshi so‘z, samimiy maslahat va insonlarga foyda yetkazadigan har qanday amalni o‘z ichiga oladi. Bu haqida Alloh taolo Quroni Karimda bunday deydi: “(Ey Muhammad) Sizdan qanday ehson qilishni so‘raydilar. Ayting: “Nimaniki xayr-ehson qilsangiz, ota-ona, qarindoshlar, yetimlar, miskinlar va musofirlarga qilingiz, Alloh har qanday qilgan ehsonlaringizni bilib turuvchidir¹⁷”. Biror kishiga bir yaxshilik qilsangiz yoki ehson qilsangiz, bundan dilimiz ravshan tortadi ruhiy xotirjamlik yuzaga keladi, birov-larga manfaatingiz tekkanidan xursand bo‘lasiz. Ehson qilingan kishi ham, o‘ziga ko‘rsatilgan yaxshilikdan sevinadi, ko‘nglida sizga nisbatan muhabbat paydo bo‘ladi, agar sizga dushmanligi bo‘lsa unutadi. Jamiyatda kishilar o‘rtasida hurmat, ehtirom, totuvlik paydo bo‘ladi, adovatlar barham topadi, osoyishtalik va farog‘at barqaror bo‘ladi.

Oyatda ehsonning turli ko‘rinishlar haqida xabar berilmoqda. Eng yaxshi ehson bu ota-onaga qilingan ehson bo‘lib, ota-onaga yaxshilik qilish to‘g‘risida oyat va hadislarda juda ko‘p ko‘rsatmalar berilga. “Rabbingiz Uning O‘zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishingizni amr etdi¹⁸”. Alloh taolo O‘ziga ibodat qilishdan so‘ng ota-onaga yaxshilik qilishni zikr qilyapti. Bu esa ota-onaga ehson qilish eng ulug‘ savobli ish ekanini va Alloh bu uchun ko‘plab ajr-mukofotlar berishini anglatadi. Ularga yaxshilik qilish deganda, ularga yaxshi mu-nosabatda bo‘lish, buyruqlariga bo‘ysunish, ularni oldida tavozeli bo‘lish, ularning haqlariga duo qilishlarni aytishimiz mumkin. Ota-onaga yaxshilik qilish to‘g‘risida hadislarda ham juda ko‘p

¹⁷ Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi va tafsiri. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – B. 33. Baqara surasi 215 -oyat.

¹⁸ Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi va tafsiri. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – B. 284. Isro surasi 23 -oyat.



ko'rsatmalar mavjud. Hadislarda bu amal jannatga kirishning eng qisqa yo'li va eng afzal amallardan biri sifatida ta'riflanadi. "Bir kishi Payg'ambarimiz (s.a.v.) huzurlariga kelib, "Ey Allohning Rasuli, odamlar ichida mening chiroyli muomalama eng munosibroq kishi kim?" deb so'radi. Rasululloh (s.a.v.): "Onang", dedilar. U kishi: "Keyin kim?" dedi. Rasululloh (s.a.v.): "Onang", dedilar. U kishi yana: "Keyin kim?" dedi. Rasululloh (s.a.v.): "Onang", dedilar. U kishi to'rtinchi marta so'raganida, Rasululloh (s.a.v.): "Otang", deb javob berdilar¹⁹". Yana bir hadisda: "Allohning roziligi otaning rozili-gidadir. Allohning g'azabi otaning g'azabidadir²⁰". Bu hadislarda ota-onaga ehson qilishning ahamiyati ochib berilgan.

Alloh taolo ehson qilish borasida "Niso" surasida quyidagicha aytadi: "Allohga ibodat qilingiz va Unga hech narsani sherik qilmangiz! Ota-onalarga esa yaxshilik qilingiz! Shuningdek, qarindoshlar, yetimlar, miskinlar, qarindosh qo'sh-ni-yu begona qo'shni, yoningizdagi hamrohingiz, yo'lovchi(musofir)ga va qo'l ostingizdagi (qaram)larga ham (yaxshilik qiling)! Albatta, Alloh kibrli va maqtan-choq kishilarni sevmaydi²¹". Bu oyatda ehsonni kimlarga qilish kerakligi yoritilgan. Alloh taologa holis ibodat qilish ehsonning eng afzali hisoblanadi. Bunda banda qilayotgan ibodatlarini yolg'iz Alloh uchun ixlos bilan qilishi lozim. Ota-onaga yaxshilik qilish borasida yuqorida aytib o'tildi. Qarindoshlarga yaxshilik qilish to'g'risida hadisda: "Kim rizqi keng bo'lishini va umri uzoq bo'lishini xohlasa, qarindoshlik aloqalarini bog'lasin²²". Insonning rizqi va umrining uzoq bo'lishi uning qarindoshlik aloqalarini bog'lashiga bog'liq ekan. Qarindoshlik aloqalarini bog'lash esa ularga ehson-yaxshilik qilish bilan bo'ladi. Jamiyatda yaxshilik qilishga eng haqlilarda biri bu ota-onasidan ayrilganlardir. Ularga yordam berish, og'rlarini yengil qilish va bu hayotda o'z o'rnilarini topishga ko'maklashish eng ulug' ehsondir. Bu haqida hadisda Muhammad (s.a.v.): "Men va yetimni kafiliga olgan (tarbiya qilgan) kishi jannatda mana shunday bo'lamiz, deb ko'rsatkich va o'rta barmoqlarini birlashtirib ko'rsatdilar²³".

¹⁹ Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahih Buxoriy. J. 4. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – B. 55.

²⁰ Abu Iyso Muhammad Termiziy. Sunan Termiziy. J. 1. – Toshkent: Qamar-media, 2022. – B. 412.

²¹ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimai va tafsiri. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – B. 84. Niso surasi 36 –oyat.

²² Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahih Buxoriy. J. 4. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – B. 58.

²³ Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahih Buxoriy. J. 4. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – B. 61.



Ehson qilinishga haqlilardan yana biri bu – miskinlardir. Miskinlar hayot kechirishlari uchun yetarlicha daromadlari yo‘qlardir. Ularga yordam berish ham eng fazilatli ishlardandir. Bu borada hadisda: “Bevalar va miskinlar uchun harakat qilgan kishi Alloh yo‘lida mujohid bo‘lgan yoki kechalari namoz o‘qib, kunduzlari ro‘za tutgan kishi kabidir²⁴”. Oyat davomida yaxshilik qilinishiga haqli bo‘lga yana bir toifa ya’ni qo‘shnilar ekani aytilmoqda. Insondagi qo‘shnisining haqqi shu qadar ko‘pki bu borada hadisda Rasululloh (s.a.v): “Jabroil (a.s.) menga qo‘shni haqida shu qadar ko‘p vasiyat qildiki, hatto qo‘shni qo‘shnidan meros oladi, deb o‘ylab qoldim²⁵” dedilar. Ehsonga loyiq bo‘lganlarning yana bir toifasi bu do‘stlar, yonimizdagi hamrohlarimizdir. Ular hayotimizning har qanday onida yonimizda bo‘ladiganlardir. Oyatda yana ehson qilishga buyurilgan shaxsalar bu – musofirlar va boshliqlarning o‘z qo‘lostidagi ishchilariga va xizmatchilariga bo‘lgan ehsonidir. Hadislarda bu haqida quyidagicha keladi: “Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa, musofir mehmonini ikrom qilsin²⁶”, “Ular sizning birodarlaringizdir. Alloh ularni sizning qo‘l ostingizga qilib qo‘ydi. Kimning qo‘l ostida birodari bo‘lsa, o‘zi yegan narsadan unga ham yedirsin, o‘zi kiygan narsadan unga ham kiydirsin²⁷” – deyilgan.

Eng asosiysi kimga yaxshilik qilsangiz Alloh taolo uni “Kimki (bir) hasana (savobli ish) qilsa, unga o‘n barobar (ko‘paytirib yozilur)²⁸”. Qilayotgan birgina yaxshiligimiz, aytgan shirish so‘zimiz, hatto ochiq yuz bila birovga tabassum qilishimiz ham bir ehson – yaxshilik bo‘lib, Alloh uning mukofotini o‘n barobar qilib qaytarishini aytyabdi. Bu esa ehson qilish nafaqat ehson qiluvchiga balki, undan ham ko‘proq ehson qiluvchiga foydali ekanini ko‘rsatmoqda. Ehson nafaqat insonni insonga, balki insonni tabiatga, hayvonlarga, umuman olganda o‘z atrofi-dagi barcha narsaga qilgan yaxshiligini qamrab oladi. Bu bilan inson faqat atrofi-dagi tabiatga emas, balki, eng avvalo o‘ziga ehson qilgan bo‘ladi. Inson aynan shu tabiatda yashaydi, nasl qoldiradi. Tabiatga yaxshilik qilish uni asrash va keying avlod uchun sifatli holda yetkazish bilan bo‘ladi. Bu to‘g‘risida Qur’oni karim va hadislarda

²⁴ Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahih Buxoriy. J. 4. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – B. 61.

²⁵ Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahih Buxoriy. J. 4. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – B. 62.

²⁶ Muhyiddin Zakariyo ibn Sharaf Navaviy. Qiriq hadis. – Toshkent: Matbaachi, 2023. – B. 83-84.

²⁷ Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahih Buxoriy. J. 4. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – B. 33-34.

²⁸ Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimai va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – B. A’nom surasi 160 –oyat.



“Yerni (Alloh xayrli ishlarga) yaroqli qilib qo‘yilganidan keyin (unda) buzg‘unchilik qilmangiz!²⁹” – deb marhamat qilingan. Ushbu oyatdagi “buzg‘un-chilik” tushunchasiga havoni bulg‘ash, daraxtlarni asossiz kesish va hayvonot olamiga zarar yetkazish ham kiradi. “...Shuningdek, yeb-ichingiz, (lekin) isrof qilmangiz! Zero, U isrof qiluvchilarni sevmagay³⁰” – deb tabiiy resurslardan foydalanishda me‘yorni saqlash buyurilgan. Hadislarda ham tabiatga va hayvon-larga nisbatan yaxshi munosabat bo‘lishga chaqirilgan. Agar qiyomat qoyim bo‘l-ib qolsa ham, biror kishining qo‘lida ko‘chat bo‘lsa, uni ekishga ulgursa, ekib qo‘yishiga, Rasululloh (s.a.v.) oqib turgan daryo bo‘yida bo‘lsa ham, tahoratda suvni isrof qilmaslikka haqida buyurganlar. Chanqagan itga suv bergani uchun jannatliy bo‘lgan kishi va mushukni qamab o‘ldirgani uchun do‘zaxga tushgan ayol haqidagi hadislar hayvonlarga rahm qilish haqida bayon qilingan. Bu hadislarining barchasi insonni o‘z atrofidagilarga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lishga chaqiradi. Bu esa aynan ehsondir.

Ehsoning yana bir muhim ko‘rinishlaridan biri bu – ilm olish va uni boshqalarga o‘rgatishdir. Bu ham yaxshilik turlaridan biri hisoblanadi. Zero, mod-diy ehson insonning qornini to‘ydirdi, ilm ma‘naviy ehson sifatida uning ikki dunyosini obod qiladi. Alloh taolo ilm egalarini boshqalardan baland darajaga ko‘tardi, bu ularning qilgan ilmiy ehsonlari va mehnatlari samarali ekaniga dalolatdir: “Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko‘tarur³¹”. “Ayting: “Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘lurmi?!³²”. Hadisi shariflarda esa Rasululloh (s.a.v.) ilm tarqatishni eng afzal sadaqa va ehson deb ataganlar: “Sadaqaning eng afzali – musulmon kishi ilm o‘rganib, so‘ng uni musulmon birodariga o‘rgatishidir³³”

Buyuk ulamolar ilm ehsonini moddiy ehsondan ustun qo‘yganlar: Imom G‘azzoliy: “Ilm ko‘r qalb ko‘zini ochuvchi, qorong‘u zulmatda nur bag‘ishlovchi va zaif badanlarga kuch-quvvatdir. Ilm bilan banda abrorlar darajasiga ko‘tariladi, oliy martabalarga yetishadi. Ilm ustida tafakkur qilish

²⁹ Abdulaziz Mansur.Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjimasi va tafsiri. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – B. 157. A‘rof surasi 56-oyat.

³⁰ Abdulaziz Mansur.Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjimasi va tafsiri. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – B. 154. A‘rof surasi 31 –oyat.

³¹ Abdulaziz Mansur.Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjimasi va tafsiri. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – B. 543. Mujodala surasi 11-oyat.

³² Abdulaziz Mansur.Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjimasi va tafsiri. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – B. 459. Zumar surasi 9 –oyat.

³³ Ibn Moja Muhammad ibn Yazid Qaznaviy. Sunan ibn Moja: –Qohira: Dor ihyoil kutubil arabiya, 1952. J,1. – B 89.



kunduzi ro‘za tutganga, uni muzokara etish kechani ibodat bilan bedor o‘tkazganga tengdir. Allohga toat-ibodat, tavhidni anglash, Allohni ulug‘lash va taqvo qilish ilm bilan bo‘ladi. Ilm bilan qarindoshlik aloqalari bog‘lanadi, harom bilan halol ajratiladi. Ilm peshvo-imomdir, amal unga ergashadi. Ilmdan bahramand insonlar baxtli, mahrumlar esa, baxtsizdir³⁴”. Ibn Abbos (r.a.) aytadilar: “Sulaymon (a.s) yo ilmni, yoki mol-dunyoni tanlash ixtiyori berildi. Shunda u zot ilmni tanladilar. Keyin u kishiga mol-mulk ham ato etildi³⁵”. Imom Shofe’iy: “Nafl namoz o‘qishdan ko‘ra ilm bilan mashg‘ul bo‘lish afzalroqdir”. Nega ilm ehsonning eng oliy turi? Chunki ilm – tarqatgan sari ko‘payadi, qalbni va ruhni tiriltiradi, ilm o‘z egasini qo‘riq-laydi, vafotdan keyin ham savobi davom etadi. Ilm olish – o‘z nafsiga ehson qilishdir. Ilm o‘rgatish esa butun jamiyatga ehson qilishdir. Ilm yo‘lida sarflangan har bir daqiqa va har bir so‘z – ma’naviy ehsonning eng go‘zal ko‘rinishidir.

Ehson qilish va uning fazilatlarini borasida hadislar ko‘p bo‘lib, Rasululloh (s.a.v): “Ehson qiluvchi qo‘l – oluvchi qo‘ldan yaxshiroqdir” – deb aytganlar. Inson har doim yordam so‘rovchi emas, yordam beruvchi bo‘lishga intilishi kerak. Bu bilan ehson qiluvchi odam qilayotgan ehsoni tufayli ko‘ngli hotirjam bo‘ladi, yordam berganidan, birovlarini ko‘nglini ko‘targanidan o‘zi ham hursand bo‘ladi. Ehson va xayr-saxovat – islom dinining go‘zal fazilatlaridan biridir. Sadaqa berish nafaqat oxirat uchun zaxira, balki bu dunyoda ham balolardan saqlovchidir. Bu borada hadislarida sadaqa mollarini kamaytirmasligi haqida rivoyatlar kelgan. Bir qarashda pul kamaygandek ko‘rinsa-da, Alloh uning o‘rnini baraka bilan to‘ldiradi. Ehson qilishning muhim shartlaridan biri ehsonni ko‘z-ko‘z qilmasdan, holis Alloh uchun berishdir. Shundagina u haqiqiy ehson bo‘ladi. Insonlarning uni sahiy deb bilishlari yoki uni hurmat qilishlari uchun qilinadigan yaxshilik, xayr-sahovat insonga yengillik, qalb hotirjamligini bermaydi. Balki bu ko‘z bo‘yamachilik, o‘z – o‘zini aldashdan boshqa narsa emas. Bu borada xalq maqollarimizda ham “O‘ng qo‘ling berganini chap qo‘ling bilmasin” dega gap bejiz aytilmagan. Bu to‘g‘risida hadislarida quyidagicha keladi: “Yetti toifa kishini Alloh O‘zining soyasidan boshqa soya bo‘lmaydigan kunda (Qiyomatda) Arshining soyasiga oladi. Ulardan biri – sadaqa berib, uni shunchalik maxfiy tutadiki, hatto chap qo‘li o‘ng qo‘li bergan narsani bilmay qoladi”.

³⁴ Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliy. Ihyo ulumid-din. – Toshkent: Movarounnahr, 2007. – B. 21.

³⁵ Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliy. Ihyo ulumid-din. – Toshkent: Movarounnahr, 2007. – B. 13.



Islom manbalarida yoritiladigan ehsonning yana bir muhim turi bu – bandaning ibodatidagi ehsonidir. Bu ehson ham yuqorida bayon qilingan ehson turlari kabi muhim bo‘lib, bu turda insonning inson bilan, yoki insonning atrofidagilari bilan munosabatidagi ehson emas balki, inson va Alloh o‘rtasidagi ehsondir. Ehsonning bu turi haqida “Jabroil hadisi” deb nomlangan mashhur hadisda quyidagicha bayon etiladi: “Ehson bu – Allohga xuddi Uni ko‘rib turga-ningdek, agar sen Uni ko‘rmasang, U seni ko‘rib turganidek ibodat qilishingdir³⁶”. Inson o‘z ibodatlarini ado qilar ekan, xuddi Allohni ko‘rib turgandek, Uning huzurida turgandek ado qilishi lozimdir. Ba’zan inson ibodat qilayotganida dunyo ishlari, keraksiz bo‘lgan narsalarni hayolidan o‘tkazadi. Bu esa ibodatdan chalg‘itadi va banda ibodat ruhini yo‘qotadi. Bu esa ibodatdan ko‘zlangan maqsadni amalga oshmasligiga olib boradi. Insoning ibodatidan maqsadi – Alloh bilan aloqalarini yaxshilash, hotirjamlik his qilish, ne‘matlarga shukr qilish va berilgan sinovlar uchun sabr, iroda so‘rash uchun qilinadi. Demak, inson ibodat qilishda dunyo tashvishlaridan biroz bo‘lsada halos bo‘lishi lozim. Agar Allohni ko‘rib turgandek, Uning huzurida hozir bo‘lgandek bo‘laolmasang, Alloh seni ko‘rib turganini his qilib ibodat qil. Ana shu mezon nafaqat ibodatda, balki insonning har bir qilayotgan ishi uchun asosiy mezondir. Inson qilayotgan ishlarini, qilayotgan yaxshiliklarini Alloh ko‘rib turganini his qilsa, bu qilayotgan ishlarininig mukofoti borligini va besamar ketmasligini tushunib yetadi. Ehsoning asosi ham aynan mukofotni insonlar tomonidan berilishi yoki e’tirof etilishi emas balki, mukofotni Alloh tomonidan berilishni umid qilishdir.

Yuqorida ehsonning turlarini bayon qildik, ehson o‘zida ko‘p yaxshiliklarni jamlaydi. Umuman olganda, ehsonning turlarini quyidagicha katta guruhlariga ajratish mumkin:

1. Moddiy ehson: Muhtojlarga mol-mulkdan, oziq-ovqatdan yoki boshqa narsalardan berish. Zakot, sadaqa va qarz berish – bularning barchasi moddiy ehsonning shakllaridir. Bu bilan jamiyatda barqarorlikni saqlash, muhtojlarga yordam berish, boylar va ehtiyojmandlar munosabatini yaxshilashga erishiladi. Ehsonning bu turi ijtimoiy hayotda juda muhimdir.

2. Ilmiy ehson: Odamlarga foydali ilm o‘rgatish va bilgan narsalari bilan bo‘lishish. Rasululloh (s.a.v)dan ilm to‘g‘risida juda ko‘plab hadislar rivoyat qilingan bo‘lib, foyda keltiradigan ilm inson vafotidan keyin ham unga foyda berishini aytganlar. Ilm berish ham ehsonning turlaridan bo‘lib, bu jamiyatning ilmiy salohiyatini oshirish, xalq orasida bilimsizlikka barham

³⁶ Muhammadsiddiq Abdulmannon o‘g‘li Abdulloh Abdulmajid o‘g‘li. Ehson. – Toshkent: Matbaachi, 2024 – B.12.



berishga chaqiradi. Har qanday zamonda ham ilm insonlarni qutqaruvchi najot sifatida baholangan. Ilm berish orqali insonga eng katta yaxshilik qilgan bo'lasiz. Bu esa ehsonning ko'rinishlaridan biridir.

3. Odob va yaxshi muomala: Yuzda tabassum qilish, odamlarga chiroyli gapirish va boshqalarga rahm-shafqat ko'rsatish ham ehson hisoblanadi. Bugungi kunimizda eng ko'p tarqalgan jamiyatdagi muammolardan biri bu – odobsizlik, hurmatsizlik va bir–birimizga qo'pol munosabatda bo'lishdir. Bu narsa esa jamiyatimizda ko'plab yomon holatlarga sabab bo'lmoqda. Bu muammolarga yechim esa aynan ehsonning shu turi bilan hal qilinadi.

4. Ibodatdagi ehson: inson va Alloh o'rtasidagi ehson bo'lib, Allohga xuddi Uni ko'rib turganingdek, agar sen Uni ko'rmasang, U seni ko'rib turganidek ibodat qilishingdir.

5. Tabiatni asrash: Ehson nafaqat insonni insonga qiladigan yaxshiligi, bal-ki insonni tabiat olamga, undagi yashovchi o'simlik dunyosi, hayvonot dunyo-siga ham qiladigan yaxshiligidir. Ekalogik muammolar global muammolarga aylanib ulgurgan. Tabiatni asrash yer yuzida yashayotgan har bir inson uchun taaluqli.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, ehson kirib bormagan sohaning o'zi yo'q. Ehson jamiyat uchun, undagi yashovchi insonlar uchun o'zlari yashayotgan jamiyatni rivojlantirish, o'zaro aloqalarni yaxshilash va mustahkamlash omili hisoblanadi. Jamiyatda ehson tushunchasining keng yoyilishi insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, adolat va totuvlikni ta'minlashga, adovatlarni bartaraf etib, ma'naviy barqarorlikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Insonlarning eng afzali bu – bironlarga eng ko'p foydasi tekkanidir. Ehson qilishdan maqsad ham insonlarga, o'z atrofimizga foyda keltirishdir. Ba'zan shunday insonlar bo'ladiki, ularda ehson qilishga, yordam berishga imkoniyatlari bo'ladi, ammo nima qilishni, qanday qilishni bilishmaydi. Bunday vaziyatda ehson qilishga yo'llab qo'yish ham ehsondir. Muhammad (s.a. v) hadisda: “Kim bir yaxshilikka yo'llab qo'ysa, unga o'sha ishni qilganing savobidek ajr beriladi³⁷” – deganlar. Bu ish esa hammaning qo'lidan keladigan ish bo'lib, yaxshi niyyat, xohish va jiddu-jahd bo'lsa kifoyadir. Bugungi kunda jamiyat rivoji va insonlarga yordam berish maqsadida turli ehson markazlari – xayriya jamoat fondlari, xayriya jamg'armalari faoliyat yuritmoqda. Bu orqali insonlarda bir-biriga nisbatan g'amxo'rlik, rahm-shafqat hissi kuchayadi. Jamiyatning har bir a'zosi boshqa bir a'zo uchun yordam qo'lini cho'zishi, ular orasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi, o'zaro ishonchni oshiradi va jamiyatda bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini

³⁷ Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Adabul mufrad. – Toshkent: 2007. – B. 41.



olishga yordam beradi. Bu ehsonning jamiyat rivoji uchun muhim oil ekanini ko'rsatadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim manolarining tarjimasi va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – 624 b.
2. Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G'azzoliy. Ihyo ulumid-din. – Toshkent: Movarounnahr, 2007. – 144 b.
3. Abu Iyso Muhammad Termiziy. Sunan Termiziy. J. 1. – Toshkent: Qamar-media, 2022. – 412 b.
4. Ibn Moja Muhammad ibn Yazid Qaznaviy. Sunan ibn Moja. – Qohira: Dor ihyoil kutubil arabiya, 1952. J. 1. – 683 b.
5. Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahih Buxoriy. J. 4. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 361 b.
6. Muhammadsiddiq Abdulmannon o'g'li Abdulloh Abdulmajid o'g'li. Ehson. – Toshkent: Matbaachi, 2024. – 320 b.
7. Muhyiddin Zakariyo ibn Sharaf Navaviy. Qiriq hadis. – Toshkent: Matbaachi, 2023. – 197 b.
8. www.naqshband.uz
9. www.bukhari.uz
10. www.muslim.uz